

JAMIYATDA HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY ONGNI OSHIRISHDA ICHKI
ISHLAR ORGANLARINING TUTGAN O'RNI

Salohiddin Hamroyev

Annotatsiya: Maqolada qonunchilikka kiritilgan so'nggi o'zgarishlar va yangiliklarni aholi o'rtasida, xususan mahalla, tadbirkorlik subyektlari yoki ta'lim muassasalarida targ'ib qilish, bu yo'nalishdagi natijalar hamda huquqiy targ'ibot tadbirlari davomida qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini yanada kengroq ochib berish va aholiga yetkazish bo'yicha xulosalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Huquqiy targ'ibot, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

Abstract: In this article, the promotion of the latest changes and innovations introduced in the legislation among the population, in particular in the neighborhood, business entities or educational institutions, the results in this direction and the content of the legislative documents during the legal promotion activities. The procedure for wider disclosure and delivery to the population is described.

Key words: Legal promotion, legal awareness, legal culture.

Аннотация: В данной статье рассматривается пропаганда последних изменений и новаций, вносимых в законодательство среди населения, в частности в микрорайонах, субъектах предпринимательства или образовательных учреждениях, результаты в этом направлении и содержание законодательных документов в ходе правопробандистской деятельности. Описан порядок более широкого раскрытия и доставки населению.

Ключевые слова: правовое продвижение, правосознание, правовая культура.

Davlatning rivojlanishi, aholining qonunlarni hurmat qilishi va ularni tushunib yetgan holda, o'z huquq va majburiyatlarini anglashi bevosita ularning qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlardan xabardorligi hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyati rivojlanganligiga bog'liq.

Qonunchilikdagi so'nggi o'zgarish va yangiliklarni muntazam ravishda aholining barcha qatlamiga yetkazib borish esa har bir ichki ishlar organlari xodimlarining asosiy vazifasi bo'lmog'i talab etiladi hamda ichki ishlar organlari bugungi kunda mazkur vazifani to'laligicha ado etib kelmoqda.

Shu o'rinda, avvalambor huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalariga oydinlik kiritib o'tish maqsadga muvofiq.

Huquqiy ong – ijtimoiy ong shakli; jamiyat a'zolarining mavjud huquqiy munosabatlar va huquqni tushinishi, huquq-tartibot haqidagi tasavvurida o'z aksini topadi. Huquqiy ong nafaqat amaldagi huquq, balki uning tarixi, shuningdek boshqa jamiyatlardagi voqeliklarni bilishni ham o'z ichiga oladi [].

Huquqiy madaniyat – jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishidir [].

Professor X. Odilqoriyev: "Aslida, huquqiy madaniyat o'z mohiyat e'tibori bilan insonning siyosiy va huquqiy jihatdan ijtimoiylashuvi (sotsializatsiyasi) natijasidir. Bunda insonning ijtimoiy tajribasi, bilim va ko'nikmalari to'laligicha namoyon bo'ladi. Inson o'z manfaat va ehtiyojlarini qondirishga qay darajada qobil, ayni vaqtda, jamiyat manfaatlarini taminlashga qanchalik samarali hissa qo'sha oladi, degan savollarga javob ko'p jihatdan uning ichki ma'naviyati, e'tiqodi va huquqiy madaniyatiga bog'liq. Shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi uning jamiyat huquqiy hayoti va amaliyotiga faol daxldorlik holatini ko'rsatadi. Mazkur daxldorlik darajasi shaxs huquqiy bilimlarni qadam-baqadam o'zlashtirib borgani sayin o'sib boradi va uning huquqiy me'yorlariga ongli, ixtiyoriy rioya etish saviyasi orqali namoyon bo'ladi"[] – degan fikrni ilgari suradi.

Shunga ko'ra davlat jamiyatning huquqiy hayot va amaliyotga daxldorligini oshirish orqali ularda huquqiy ijtimoiylashuvni shakllantirish va huquqiy madaniyatni boyitishga xizmat qilish

maqsadida ijro hokimiyatiga aniq vazifalarni qonun darajasida belgilab o'tadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida" 07.09.2017-yildagi O'RQ-443-son qonuni 7-moddasida vazirliklar va idoralar o'z vakolatlari doirasida normativ-huquqiy hujjatlar matnlaridagi normalarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga doir, jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga hamda qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan zarur ishlarni tashkil etishi belgilangan.

Shuningdek yuqoridagi qonunga asosan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi davlat organlari va tashkilotlarning huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishni, bu faoliyatga uslubiy rahbarlik qilish hamda uni nazorat qilishni amalga oshiradi.

2022-yilning 17-fevralida qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 74-son qaroriga muvofiq Adliya vazirligi tomonidan jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash "Huquqiy targ'ibotni baholash tizimi" elektron portali orqali amalga oshirilishi belgilandi.

Ushbu elektron portalda 13 ta indikator (ko'rsatkich) bo'yicha kiritilgan ma'lumotlarga asosan vazirlik va idoralarning huquqiy targ'ibot faoliyati baholab boriladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan huquqiy targ'ibotni amalga oshirish faoliyati Ichki ishlar vazirining "Ichki ishlar organlarida huquqiy targ'ibot ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 18-iyundagi 222-son buyrug'iga asosan tashkil etiladi [].

2023-yilning ikkinchi yarim yillik davrida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga doir amalga oshirilgan loyihalar hamda davlat organlari va tashkilotlarining mazkur yo'nalishdagi faoliyati monitoringi natijalariga ko'ra vazirliklar orasida Ichki ishlar vazirligining faoliyati eng samarali deb topildi [].

Bundan ko'rinib turibdiki, ichki ishlar organlari jamiyatda huquqiy axborotni tarqatish va aholining huquqiy bilimlarini boyitib borishda tizimli ishlarni amalga oshirmoqda.

Tadqiqotchilardan biri shunday fikrlarni bildiradi: "chiqarilgan qonun va qarorlarni yoshlarga yetkazishda, axborotni tez tarqatishga e'tibor qaratish kerak. Bunda mobil telefon va ijtimoiy tarmoqlar qisqa vaqt ichida ma'lumotlarning barchaga yetib borishiga yordam beradi" [].

Umuman olganda, amalga oshiriladigan huquqiy targ'ibot tadbirlarining asosiy qismi Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritib borilsa ham xodimlar tomonidan mahalla, tadbirkorlik subyektlari va ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan "offlayn" uchrashuvlarning salmog'ini ham inkor etib bo'lmaydi.

Bugungi kunda birgina mahallalarning o'zida 10 000 dan ortiq profilaktika inspektorlari xizmat olib bormoqda va ularning asosiy xizmat faoliyatlari aynan xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilishdan iborat. Ushbu raqamlar ichki ishlar organlariga har bir mahalladagi har bir xonadonga huquqiy axborotni olib kirish, aholini o'zining qonuniy huquq va manfaatlari bilan batafsil tanishtirish imkonini beradi.

Lekin shunga qaramay aholining katta qismi so'nggi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlardan xabardorlik darajasi qoniqarli ahvolda emas. Xodimlar tomonidan huquqiy axborotni aholi o'rtasida targ'ib etishda targ'ibotni og'zaki tarzda e'lon qilish va keng auditoriyaga yetkazish bo'yicha umumiy qoidalar belgilanmaganligi ushbu tadbirlarni o'tkazishda qator qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Bunda huquqiy axborotni tarqatayotgan xodimlarning ushbu ma'lumotlarni aholining katta qismiga bevosita uchrashuvlar davomida yetkazish jarayonida tadbirga tayyorgarlik ko'rish hamda ma'lumotlarni yig'ilganlarga tushunarli va ta'sirchan holda yetkazishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tadbirning sifatli o'tkazilishi ya'ni huquqiy yangiliklar yig'ilganlarning barchasi uchun tushunarli va manfaatli bo'lishi ularni tashkillashtirish hamda o'tkazishdan ko'zlangan

asosiy maqsad hisoblanib, avvolambor ma'ruzachi xodimning o'zi ushbu huquqiy axborotni to'liq tushunib yetgan va aholiga tushunarli tilda yetkazish mahoratini egalashi lozim.

Shundan kelib chiqqan holda, huquqiy targ'ibotni amalga oshiruvchi ichki ishlar xodimlari o'quv muassasalarida, mahalla yoki tadbirkorlik subyektlarida tashkil etiladigan targ'ibot tadbirlariga ham alohida e'tibor qaratishlari va tadbirlar oldidan puxta tayyorgarlik ko'rgan holda huquqiy axborotni aholining yanada keng qatlamlariga qadar olib kirishlari talab etiladi.

Zero, fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlash faqatgina huquqiy madaniyati va huquqiy ongi rivojlangan jamiyat bilangina amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Mavjud kuch va vositalar esa ichki ishlar organlarining jamiyatda huquqiy madaniyat va huquqiy ongni rivojlantirishdagi o'rni beqiyos ekanligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
2. <https://regulation.gov.uz/uz/d/87302>
3. Abdulova T.P. Agressivnyy podrostok / T.P. Abdulova. - M.: Akademiya, 2008. - 128 s.
4. <https://www.unicef.org/protection/violence-against-children-in-school>